




TADBIRKORLIK EKOTIZIMINING JAHON AMALIYOTIDA QO'LLANILAYOTGAN ASOSIY MODELLARI QIYOSIY TAVSIFI

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

PhD, Toshkent kimyo-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0006-2728-9264>

tukhtasinovzafar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21820455>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyul 2026 yil
Ma'qullandi: 15-iyul 2026 yil
Nashr qilindi: 31-iyul 2026 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Tadbirkorlik muhitini yaxlit tizim sifatida talqin etuvchi bir qator nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri mahalla darajasida qo'llash nuqtai nazaridan ma'lum afzallik va cheklovlarga ega. Tadbirkorlik ekotizimi yondashuvi (Entrepreneurial Ecosystem Approach) tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlarning o'zaro bog'liqligi va hamkorlikda rivojlanishiga asoslanadi.

Xitoylik tadqiqotchilar Z. Cao va X.A. Shi rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik ekotizimlarining samaradorligi institutsional muhitning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatib, resurslari cheklangan hududlarda institutlarning alohida ahamiyat kasb etishini asoslaydi [1]. Milliy va hududiy innovatsiya tizimlari (National Innovation System va Regional Innovation System) konsepsiyalari bilimlar, texnologiyalar va innovatsiyalar almashinuviga tayanadi. Biroq ushbu yondashuvlar asosan mamlakat yoki mintaqa miqyosida ishlab chiqilgani sababli mahalla darajasida to'liq qo'llanish imkoniyati cheklangan. Uch spiralli, to'rt spiralli va besh spiralli modellar (Triple Helix, Quadruple Helix, Quintuple Helix) davlat, biznes, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati hamda ekologik muhit o'rtasidagi hamkorlikni tizimli ravishda izohlaydi. Finlyandiyalik olimlar Y. Cai va A. Lattu to'rt spiralli model doirasida fuqarolik jamiyatining innovatsion rivojlanishdagi rolini tahlil qilib, mahalliy hamjamiyatning faol ishtiroki innovatsion muhitni shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi [2]. Mazkur jihat mahalla institutining mazmun-mohiyatiga ham yaqin hisoblanadi. Klaster nazariyasi hamda mahalliy iqtisodiy rivojlanish (Local Economic Development) yondashuvi hududiy yaqinlik, iqtisodiy ixtisoslashuv va raqobat ustunliklarini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ular tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy va institutsional jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Inklyuziv tadbirkorlik ekotizimi hamda jamoaga asoslangan tadbirkorlik (Community-Based Entrepreneurship) yondashuvlari esa aholini, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishni nazarda tutadi. Amerikalik tadqiqotchilar P. Roundy va T. Lyons tadbirkorlik ekotizimlarida inklyuzivlikning ahamiyatini o'rganib, tizimning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligi aholining keng qatlamlari qamrab olinishi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [3]. Shuningdek, "aqlli hudud" (Smart Territory) konsepsiyasi raqamli texnologiyalarni hududiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, mahalla darajasida raqamli ekotizimni shakllantirish uchun metodologik asos yaratadi. Ushbu yondashuvlarning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**Tadbirkorlik ekotizimining jahon amaliyotida qo'llanilayotgan asosiy modellari
qiyosiy tavsifi**

Yondashuv	Asosiy g'oya	Kuchli tomoni	Mahalla darajasidagi cheklovi
Entrepreneurial Ecosystem	Subyektlarning o'zaro bog'liqligi	Yaxlit rivojlanish va hamkorlik	Keng ma'lumotlar bazasini talab qiladi
National/Regional Innovation System	Bilim va texnologiyalar almashinuvi	Innovatsion salohiyatni rivojlantiradi	Asosan makro darajaga yo'naltirilgan
Triple/Quadruple/Quintuple Helix	Ko'p tomonlama hamkorlik	Jamiyat va ekologik omillarni qamrab oladi	Institutsional rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi zarur
Cluster / LED	Hududiy yaqinlik va ixtisoslashuv	Raqobatbardoshlikni oshiradi	Ijtimoiy jihatlarini cheklangan darajada qamrab oladi
Inclusive / Community-Based	Aholining keng qatlamlarini jalb etish	Mahalla tuzilmasiga mos keladi	Resurslar va muvofiqlashtirishga bog'liq
Smart Territory	Raqamli integratsiya	Shaffoflik va zamonaviy boshqaruvni ta'minlaydi	Raqamli infratuzilma talab etadi

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlarning hech biri alohida holda mahalla tadbirkorlik ekotizimining barcha jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Innovatsion tizimlar konsepsiyasi asosan makro darajaga yo'naltirilgan bo'lsa, klaster yondashuvi iqtisodiy ixtisoslashuvga e'tibor qaratadi, inklyuziv modellar esa aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini kengaytirishga urg'u beradi. Shu sababli mahalla tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishda tadbirkorlik ekotizimi yondashuvining yaxlitligi, to'rt spiralli modelning jamoaviy komponenti hamda "aqli hudud" konsepsiyasining raqamli integratsiya imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan uyg'unlashtirilgan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda, jahon amaliyotida mahalliy darajada tadbirkorlik ekotizimlarini shakllantirish bo'yicha qator muvaffaqiyatli tajribalar ham mavjud. Finlyandiyaning "Startup Village" tashabbusi startaplar, investorlar va oliy ta'lim muassasalarini yagona innovatsion makonda birlashtirishga qaratilgan. Buyuk Britaniyaning "Local Enterprise Partnerships" modeli esa mahalliy hokimiyat organlari va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan boshqaruv mexanizmini shakllantirgan. Janubiy Koreyada amalga oshirilgan "Saemaul Undong" harakati hamda Tailandning "One Tambon One Product" dasturi (birinchi bobda batafsil tahlil qilingan) mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, jamoaviy safarbarlikni kuchaytirish va hududiy mahsulotlarni rivojlantirish bo'yicha muhim tajribani namoyish etadi. Xitoyning qishloq korxonalari modeli, Hindistonda qishloq tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari, jumladan o'zini o'zi band qilish tashabbuslari, shuningdek Germaniyaning hududiy innovatsion ekotizimlari turli institutsional sharoitlarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishning samarali amaliy mexanizmlarini ko'rsatib beradi.

Ayniqsa, Yevropa Ittifoqida amalga oshirilayotgan “Smart Village” (“Aqlli qishloq”) tashabbusi mahalla darajasidagi rivojlanish uchun e'tiborga molik tajribalardan biri hisoblanadi. Polshalik iqtisodchi va hududiy rivojlanish masalalari bo'yicha tadqiqotchi A. Visvizi hamda uning hamkorlari “aqlli qishloq” konsepsiyasini tahlil qilib, uning asosiy mazmuni raqamli texnologiyalarni mahalliy hamjamiyat ehtiyojlari, tashabbuslari va ishtiroki bilan uyg'unlashtirishdan iborat ekanligini asoslaydi [4]. Mazkur yondashuv mahalla darajasida raqamli tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilgan xorijiy tajribalar O'zbekiston sharoitida bir qator amaliy elementlarni qo'llash imkonini beradi. Xususan, Janubiy Koreyaning “Saemaul Undong” tajribasidan jamoaviy safarbarlik mexanizmlarini, Buyuk Britaniyaning “Local Enterprise Partnerships” modelidan mahalliy hamkorlik va muvofiqlashtirish tamoyillarini, Tailandning “One Tambon One Product” dasturidan hududiy mahsulotlarni rivojlantirish va brendlashtirish tajribasini, Yevropa Ittifoqining “Smart Village” tashabbusidan esa raqamli texnologiyalar va jamoatchilik ishtirokini uyg'unlashtirish yondashuvlarini moslashtirish mumkin.

Muhim jihati shundaki, O'zbekistonda mahalla tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish uchun zarur institutsional va tashkiliy asoslar izchil shakllanib bormoqda. Xususan, mahalla instituti, hokim yordamchilari faoliyati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda raqamli boshqaruv vositalari mazkur yondashuvlarni milliy sharoitga mos holda samarali tatbiq etish imkonini bermoqda. Shu bois ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish mavjud mahalliy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, uning natijadorligini oshirish hamda mahallalarda tadbirkorlik tashabbuslarini keng qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Nazariy qarashlar hamda xalqaro amaliyot tajribalarini umumlashtirish asosida quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi: mahalla tadbirkorlik ekotizimi — bu ma'lum bir mahalla hududida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari, davlat va jamoat institutlari, moliyaviy, infratuzilmaviy hamda inson kapitali resurslari, shuningdek, raqamli muhitning o'zaro bog'langan tizimi bo'lib, u resurslar, axborot va moliyaviy oqimlarning uzviy harakati orqali tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur ta'rifning ilmiy ahamiyati shundaki, unda mahalla tadbirkorlik ekotizimi alohida tashkilotlar yig'indisi sifatida emas, balki ular o'rtasida shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va axborot aloqalarining yaxlit tizimi sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv ekotizim samaradorligini uning tarkibiy elementlari soni bilan emas, balki ular o'rtasidagi hamkorlik sifati, resurslar harakatining uzluksizligi, axborot almashinuvining tezkorligi hamda muvofiqlashtirish mexanizmlarining natijadorligi bilan baholash imkonini beradi. Natijada tadbirkorlik rivojlanishi alohida subyektlar faoliyatining yakka natijasi emas, balki turli manfaatdor tomonlarning hamkorligi, o'zaro ishonchi va integratsiyalashgan faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik ekotizimlari nazariyasining rivojlanishida muhim o'rin tutgan AQSHning Babson College professori Daniel Isenberg ekotizim muvaffaqiyatini institutlar o'rtasidagi samarali munosabatlar va hamkorlik mexanizmlari bilan bog'laydi. Niderlandiyaning Utrecht universiteti professori Erik Stam esa tadbirkorlik ekotizimining asosiy vazifasi tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratishdan iborat ekanini ta'kidlab, bunda institutlar, kapital, bilim va ijtimoiy tarmoqlar o'rtasidagi bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Ushbu nazariy qarashlar mahalla tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish va rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Cao, Z., Shi, X. A systematic literature review of entrepreneurial ecosystems in advanced and emerging economies. *Small Bus Econ* 57, 75–110 (2021). <https://doi.org/10.1007/s11187-020-00326-y>

2. Cai, Y., Lattu, A. Triple Helix or Quadruple Helix: Which Model of Innovation to Choose for Empirical Studies?. *Minerva* 60, 257–280 (2022). <https://doi.org/10.1007/s11024-021-09453-6>
3. Roundy, P., & Lyons, T. (2021). Where are the entrepreneurs? A call to theorize the micro-foundations and strategic organization of entrepreneurial ecosystems. *Strategic Organization*, 14761270211056240.
4. Visvizi, A., Lytras, M. D., & Mudri, G. (2019). Smart villages: Relevance, approaches, policymaking implications. In A. Visvizi, M. D. Lytras, & G. Mudri (Eds.), *Smart villages in the EU and beyond* (pp. 1–12). Emerald Publishing.
5. https://www.researchgate.net/publication/344395674_Smart_Villages_in_the_EU_and_Beyond?__cf_chl_f_tk=0NREW5Cjv09LQj6Sl9uyQSMRRwW3.vJ7cPVPiHL_mTI-1782992569-1.0.1.1-0vSweCG7Z0vBKwn.BZ6s09oH8M3HYdLZCklcQSvI_JY



**INNOVATIVE
ACADEMY**